



SURXONDARYODA ISTIQBOLLI MAHALLIY HANDALAK NAVLARI

¹I.O.Beknazarov

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti,

²D.R.Utashova

Termiz tuman kasb-hunar mahtabi o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7385204>

ARTICLE INFO

Received: 20th November 2022

Accepted: 28th November 2022

Online: 30th November 2022

KEY WORDS

ABSTRACT

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot inistituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida keying yillarda handalakning 40 ga yaqin navlari yig'ildi.

Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot inistituti Surxondaryo ilmiy tajriba stansiyasida keying yillarda handalakning 40 ga yaqin navlari yig'ildi. 2021-2022-yilda yig'ilgan handalak nav namunalari yetishtirish texnologiyalari bo'yicha tajribalar o'kazildi. O'tkazilgan

tajribalarda ko'chat usulida yetishtirilganda mahalliy handalak nav namunalarining eng istiqbolli deb topilgan "bobaki", "erta pishar kichik handalak", "hovdak", "bandixon 2021", "eti qizil handalak" navlari ajratib olindi.

1-jadval

Handalak nav namunalarining o'suv davri davomiyligi-2021-2022							
t/r	Nav namunalari	Unib chiqishi	Chin barg chiqishi	Otalik gul	Onalik gul	Meva hosil bo'lishi	Meva pishish vaqti
1	Kichkintoy (st)	9	16	50	63	68	91
2	Bandixon 2021	8	19	55	59	64	94
3	Hovdak	6	16	58	60	64	90
4	Bobaki		16	50	55	58	88
5	Erta pishar kichik handalak	10	20	51	55	59	85
6	Eti qizil handalak	7	14	50	64	68	91

Tajribada handalak urug'lari ekishdan yoppasiga unib chiqqunicha bo'lgan vaqt qiyosiy nav kichkintoyda 9 kunni, erta pishar kichik handalak 10 kunni, bobaki 7

kunni, bandixon 2021 8 kunni, eti qizil handalak 7 kunni, hovdak navida 6 kunni tashkil etdi.



Unib chiqqandan yoppasiga chin barg chiqarishi qiyosiy, boboki, hovdak navlarida 16 kunda, erta pishar kichik handalak 20 kunda, eti qizil handalak 14 kunda, bandixon 2021 navlarida 19 kunda kuzatildi.

Unib chiqqandan otalik gullari yoppasiga gullashi qiyosiy hamda boboki, eti qizil handalak navlarida 50 kunni, erta pishar kichik handalak 51 kunni, hovdak 58 kunni, bandixon 2021 navida 55 kunni tashkil etdi.

Unib chiqqandan onalik gullari yoppasiga gullashi qiyosiy navda 63 kun, erta pishar kichik handalak, bobaki navlarida 55 kunda, hovdak 60 kun, bandixon 2021 navida 59 kunni tashkil etdi.

Unib chiqqandan yoppasiga meva hosil bo'lganicha qiyosiy navda 68 kun, erta pishar kichik handalak, 59 kunda, boboki 58 kun, eti qizil handalak 68 kun, hovdak, bandixon 2021 navlarida 64 kun kerak bo'ldi.

Unib chiqqandan yoppasiga meva pishib yetilguncha bo'lganicha qiyosiy, eti qizil handalak navlarida 91 kun, erta pishar kichik handalak 85 kun, boboki 88 kun, hovdak 90 kun, bandixon 2021 navlarida 94 kunni kunni tashkil etdi. Ushbu navlarda o'suv davrining davomiyligi jihatidan ko'p farq qilmadi. Ammo navlar biometrik o'lchovlarida farqlarni ko'rish mumkin(2-jadval).

2-jadval

Handalak poya uzunligi va poyalar soni-2021-2022 y				
Nav, liniya	Asosiy poya uzunligi, sm	Yon shoxlar uzunligi, sm	Umumiy uzunligi,sm	Yon shoxlar soni, dona
Kichkintoy (st)	152	351	502	5
Bandixon 2021	194	412	606	7
Hovdak	200	405	605	8
Bobaki	180	404	584	7
Erta pishar kichik handalak	171	369	540	7
Eti qizil handalak	155	362	517	5

Qiyosiy kichkintoy navida da asosiy popya uzunligi 152 sm ni yonshoxlar uzunligi 351 sm, poyaning umumiy uzunligi 502 smni, yonshoxlar soni 5 tani tashkil etdi. Istiqbolli deb topilgan mahalliy handalak navlarida bu ko'rsatkichlar qiyosiy navdan yuqori yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi.

Bandixon 2021 navida asosiy poya uzunligi 194 sm, qiyosiy navga nisbatan 42 sm uzun, yonshoxlar uzunligi 412 sm, qiyosiy navga nisbatan 54 sm uzun, umumiy poya uzunligi 606 sm, qiyosiy navga nisbatan 104 sm uzun bo'ldi, yonshoxlar soni 7 tani tashkil etdi.



Istiqbolli mahalliy handalak navlarining hosildorligi				
Mevaning o'rtacha		Hosildorlik		
Soni, dona	Vazni, kg	t/ga	Nazoratga nisbatan %	Tavarbop hasil ulishi%
3,2	1,0	44,3	100	92

Hovdak navida asosiy poya uzunligi 200 sm, qiyosiy navga nisbatan 48 sm uzun, yonshoxlar uzunligi 412 sm, qiyosiy navga nisbatan 61 sm uzun, umumiy poya uzunligi 605 sm, qiyosiy navga nisbatan 103 sm uzun bo'ldi, yonshoxlar soni 8 tani tashkil etdi.

Bobaki navida asosiy poya uzunligi 180 sm, qiyosiy navga nisbatan 28 sm uzun, yonshoxlar uzunligi 404 sm, qiyosiy navga nisbatan 53 sm uzun, umumiy poya uzunligi 584 sm, qiyosiy navga nisbatan 82 sm uzun bo'ldi, yonshoxlar soni 7 tani tashkil etdi.

Erta pishar kichik handalak navida asosiy poya uzunligi 155 sm, qiyosiy navga

nisbatan 3 sm uzun, yonshoxlar uzunligi 369 sm, qiyosiy navga nisbatan 18 sm uzun, umumiy poya uzunligi 540 sm, qiyosiy navga nisbatan 38 sm uzun bo'ldi, yonshoxlar soni 7 tani tashkil etdi.

Eti qizil handalakanavida asosiy poya uzunligi 171 sm, qiyosiy navga nisbatan 19 sm uzun, yonshoxlar uzunligi 362 sm, qiyosiy navga nisbatan 11 sm uzun, umumiy poya uzunligi 517 sm, qiyosiy navga nisbatan 15 sm uzun bo'ldi, yonshoxlar soni 5 tani tashkil etdi. Yonshoxlar soni bo'yicha eti qizil handalak qiyosiy nav bilan bir xil ko'rsatkichga ega bo'ldi. Hosildorligi bo'yicha ham tahlillar olindi(3-jadval).

Istiqbolli mahalliy handalak navlarining hosildorligi						
t/r	Nav namunalari	Mevaning o'rtacha		Hosildorlik		
		Soni, dona	Vazni, kg	t/ga	Nazoratga nisbatan %	Tavarbop hasil ulishi%
1	Kichkintoy (ST)	3,2	1,0	44,3	100	92
2	Boboki	3,1	1,6	70,8	160	96
3	Erta pishar kichik handalak	3,7	1,2	63,4	143	90
4	Hovdak	2,4	1,6	56,5	127,5	87
5	Bandixon 2021	2,8	1,4	55,9	126	94
6	Eti qizil handalak	3,2	1,2	54,8	124	95

3-jadval



Tatqiqot natijalarida ertapishar, serhosil, tavarboblighi jihatidan yuqoridagi handalak navlari ajratib olindi. Mevalari shakli yassi, yumoloq ko'rinishda bo'ldi. Bir o'simlikdagi mevalar soni qiyosiy hamda eti qizil handalak navlarida 3,2 ta, bobaki navida 3,1 ta, erta pishar kichik handalak 3,7 ta, hovdak 2,4 ta, bandixon

2021 navida 2,8 ta meva hosil qildi.

Meva vazni o'rtacha hisobda olinganda qiyosiy navda 1,0 kg ni, erta pishar kichik handalak, eti qizil handalak 1,2 kg ni, boboki, hovdak navlarida 1,6 kg ni, bandixon 2021 navida 1,4 kg ni tashkil etdi. Hosildorligi qiyosiy navda 44,3 t /ga, bobaki 70,8 t /ga, qiyosiy navga nisbatan 26,5 t /ga hosildorligi yuqori. Erta pishar kichik handalak 63,4 t /ga, qiyosiy navga nisbatan 19,1 t /ga hosildorligi yuqori bo'ldi. Hovdak, bandixon 2021, eti qizil handalak navlarida 56.5, 55.9, 54.8 t /ga, qiyosiy navga nisbatan 12.2, 11.6, 10.5 t /ga hosildorligi yuqori bo'ldi. Tajriba dalasida ekilgan handalak nav namunalari

bitta o'simlikdagi mevalar soni, o'rtacha meva vazni, va gekardan olinadigan hosildorlik belgilari bilan bir biridan keskin farq qildi. Yana bir jihatdan yalpi hosilning tavarboblighi ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Tavarboblik xususiyati bo'yicha qiyosiy nav 92 % ni tashkil etgan bo'lsa, boboki 96 % ni, qiyosiy navdan 4 % ko'p, erta pishar kichik handalak 90 % ni, qiyosiy navdan 2 % kam, hovdak 87 % ni, qiyosiy navdan 15 % kam, bandixon 2021 94 % ni, qiyosiy navdan 2 % ko'p, eti qizil handalak 95 % ni, qiyosiy navdan 3 % ko'p natija ko'rsatdi.

Mahalliy handalak nav namunalaridan bobaki navida eng yuqori 70,8 t /ga hosil olindi va tavarbob hosil 96 % ni tashkil etdi. Tajriba sinovi natijalariga ko'ra muhim xo'jalik belgilari, tavarbob hosildorligi bo'yicha bobaki navi istiqbolli deb topildi va u davlat nav sinash komissiyasiga topshirishga tayyorlanmoqda.

References:

1. Bo'riyev X.Ch., Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. – T.: Mehnat, 2000.
2. Mavlanova R., Rustamov A., Xakimov R., Xakimov A., Turdiyeva M., Padulosi S. O'zbekistan qovunlari. – Toshkent, 2005.
3. O'zbekiston Respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilganqishloq xo'jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent, 2020.